

Prezidentimiz Murojaatnomasiga murojaat

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi – mamlakatimiz siyosiy hayotidagi eng muhim voqea. 2017-yildan buyon an'anaga aylangan bu tadbirda tugayotgan yildagi asosiy ko'rsatkichlar, yangi yilga mo'ljallangan maqsad va vazifalar e'lon qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi 2021-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqida bildirgan fikrlari ayni kunlarda barcha yurtdoshlarimiz qatori talaba-yoshlarimiz ham qizg'in o'rganishmoqda. Joriy yilning 15-yanvar kuni "Yer resurslarini boshqarish" fakultetida ta'lim olayotgan barcha kurslarga Prezidentimiz murojaati to'g'risida targ'ibot ishlari olib borildi. Unda institutimizning Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori R.Choriev tomonidan tasdiqlangan jadval asosida, "Gumanitar fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi Mamadaminova Baxtigul Abdupattaevna Prezidentimiz murojaatnomasining asosiy mazmun-mohiyatini talabalarimiz e'tiboriga havola etdi.



Ular murojaatnomada asosan talaba-yoshlarga katta imkoniyatlar berilgani va shuningdek, ularning o'qishi, intilishlari va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga alohida e'tibor berilayotganini alohida ta'kidlab o'tishdi. Shuningdek, talabalarga 2021-yilga "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb nom berilgani murojaatnomada bugungi kunda dunyoda bo'lib o'tayotgan xavf-xatarlar haqida ham alohida e'tirof etildi. Yoshlarga katta imkoniyatlar berilayotgan bir davrda bu imkoniyatlardan unumli foydalanish, talaba-yoshlarga kutubxonalardan foydalanish, muntazam shug'ullanishlari aytili. Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerakligi. Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, biz uchun hayotiy muhim masaladir. Tinchlik va sog'likni ta'minlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz. Murojaatnomani hayotga yo'llanma, taraqqiyotga qo'llanma desak mubolag'a bo'lmaydi deb talaba-yoshlarga kerakli ma'lumotlarni berishdi. Ushbu ma'ruzalar juda qiziqarli va savol javobga boy bo'lib o'tdi. Mazkur davra suhbatidan talabalar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishdi.

TIQXMMI matbuot xizmati